MEHNAT BOZORI KO‘RSATKICHLARINI STATISTIK BAHOLASH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Mirzayeva Odina Imomnazar qizi
Toshkent davlat agrar universiteti

Aholi farovligini taminlash va hayot sifatini yaxshilash mamkaratimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadidir. Bunda mehnat bozorining samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning yangi mexanizmlarini joriy etish aholi turmush darazhasini yaxshilash va bandlikni oshirishda munosib o'rin egallaydi.

Mehnat bozorining faoliyatini samarali tashkil etish, ayniqsa aholi bandligini oshirish, uning holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tizimli tahlil qilish va statistik baholash jarayonlari ma’lum uslublar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, har doim aholi bandligi ko‘rsatkichlarini hisoblash metodikalarini takomillashtirib borishni taqoza etadi.

Mazkur tadqiqot ishida mehnat bozorida norasmiy bandlikni baholashning statistik uslubi iqtisodiy faoliyat subyektlari turlari va bandlik shakllari bo‘yicha mehnat bozoridagi “rasmiy bandlik” (≥1,0 MMBdan yuqori daromad va soliq to‘lovlari mavjudligi), “yarim rasmiy bandlik” (0,5–1,0 MMB diapazonidagi daromadlar va qisman ro‘yxatdan o‘tkazilgan faoliyat), “norasmiy bandlik” (0–0,5 MMB hamda ro‘yxatga olinmagan mehnat faoliyati) chegaralarini aniqlash orqali takomillashtirilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqot doirasida hududiy mehnat bozorida norasmiy bandlikni baholashning takomillashtirilgan statistik uslubi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda iqtisodiy faoliyat subyektlari turlari, ularning daromadlari, mehnat faoliyatining huquqiy maqomi hamda soliq munosabatlaridagi ishtiroki asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Mazkur uslubning ilmiy yangiligi shundaki, u mehnat bozoridagi bandlikni faqat “rasmiy” va “norasmiy” shakllarga ajratish bilan cheklanib qolmay, balki ular orasidagi oraliq holatni aks ettiruvchi “yarim rasmiy bandlik” kategoriyasini ham alohida ajratadi. Bu esa mehnat bozoridagi transformatsion jarayonlarni yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Takomillashtirish taklif etilayotgan metodikaga ko‘ra, mehnat bozoridagi band aholi daromadlar hajmi va faoliyatning rasmiylashtirilganlik darajasiga qarab

quyidagi, yuqorida takidlanganidek, uchta asosiy guruhga tasniflanadi: birinchi guruh – rasmiy bandlik, ikkinchi guruh – yarim rasmiy bandlik, uchinchi guruh – norasmiy bandlik. Mazkur tasniflash tizimi bandlikning sifat ko‘rsatkichlarini baholashga xizmat qiladi va iqtisodiy faoliyatning davlat statistikasida qay darajada aks etayotganligini aniqlash imkonini yaratadi.

Rasmiy bandlik mehnat bozorining eng barqaror va institutsional jihatdan rivojlangan segmenti hisoblanadi. Ushbu toifaga oylik daromadi eng kam mehnatga haq to‘lash miqdorining (MMB) kamida 1,0 baravaridan yuqori bo‘lgan hamda mehnat faoliyati amaldagi qonunchilik asosida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar kiritiladi. Bunday shaxslar bilan mehnat shartnomalari tuzilgan bo‘lib, ular davlat soliq organlari va ijtimoiy sug‘urta tizimida ro‘yxatga olingan bo‘ladi. Mazkur guruh tarkibiga korxona va tashkilotlar xodimlari, davlat muassasalari ishchilari, qonuniy faoliyat yurituvchi tadbirkorlar hamda o‘z faoliyatini rasmiy ravishda amalga oshirayotgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar kiradi. Ushbu segment vakillari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘lanishi davlat byudjeti daromadlarining shakllanishiga xizmat qiladi, shuningdek, ular pensiya, ijtimoiy sug‘urta, mehnatni muhofaza qilish va boshqa ijtimoiy kafolatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yarim rasmiy bandlik esa mehnat bozorining o‘tish xarakteriga ega bo‘lgan segmentini ifodalaydi. Ushbu guruhga daromadlari 0,5–1,0 MMB diapazonida bo‘lgan hamda iqtisodiy faoliyatining ayrim jihatlari rasmiylashtirilgan, biroq to‘liq qonuniy maqomga ega bo‘lmagan shaxslar kiritiladi. Masalan, ayrim yakka tartibdagi tadbirkorlar, mavsumiy ishchilar, oilaviy biznes vakillari yoki xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan fuqarolar mazkur toifaga mansub bo‘lishi mumkin. Ularning ayrimlari soliqlarni qisman to‘laydi yoki faoliyatining faqat ma’lum qismini rasmiy ravishda deklaratsiya qiladi. Natijada ushbu qatlam iqtisodiyotda faol ishtirok etayotgan bo‘lsa-da, uning iqtisodiy natijalari statistika va soliq hisobotlarida to‘liq aks etmaydi. Yarim rasmiy bandlikning mavjudligi ko‘pincha biznes yuritish xarajatlarining yuqoriligi, ma’muriy tartib-taomillarning murakkabligi yoki aholi daromadlarining yetarli darajada barqaror emasligi bilan izohlanadi.

Norasmiy bandlik esa mehnat bozorining eng murakkab va statistik jihatdan kam kuzatiladigan segmenti hisoblanadi. Ushbu guruhga daromadi 0–0,5 MMB oralig‘ida bo‘lgan yoki umuman rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar kiritiladi. Norasmiy bandlikka ko‘cha savdosi, uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish, kunlik yollanma ishlar, vaqtinchalik xizmatlar ko‘rsatish, qurilishdagi norasmiy mehnat, qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ishlar

hamda boshqa ro‘yxatdan o‘tmagan faoliyat turlari kiradi. Bunday faoliyat davlat statistika organlari uchun to‘liq kuzatilmaydi, chunki ularning aksariyati mehnat shartnomalariga ega emas, soliqlarni to‘lamaydi va rasmiy hisobot tizimida ishtirok etmaydi. Shu sababli norasmiy bandlik hajmini aniqlash uchun tanlanma kuzatuvlar, uy xo‘jaliklari so‘rovlari, daromad va xarajatlar balansini tahlil qilish, iqtisodiy faol aholi monitoringi kabi statistik usullardan foydalanish zarur bo‘ladi.

Takidlash joizki, hozirgi paytda yarim rasmiy bandlik bo‘yicha alohida toifa sifatida rasmiy statistika hisoboti yuritilmaydi. Shu bilan birga, yarim rasmiy bandlikni mistaqil tadqiqot mezonlari sifatida qarab, qisman rasmiylashtirilgan bandlik ko‘rsatkichi deb hisoblash mumkin.